

"O'zavtoyol" DAK boshqaruvining 2015 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha yig'ilishi



2015 yilning 2 may kuni "O'zavtoyol" DAK majlislar zalida kompaniya boshqaruvining 2015 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda kompaniya tarkibidagi hududiy bo'linmalar, kompaniyaga bo'ysunuvchi sohaviy korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi. Yig'ilishni kompaniya boshqaruv raisi A.Abduvaliev boshqardi.

Yig'ilish avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tomonidan - 2015 yilning 16 yanvarida, Vazirlar Mahkamasining yil yakunlariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishida belgilab berilgan – O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish dasturidagi ustuvor yo'nalishlarning ijrosi masalasi ko'rib chiqildi. Shuningdek, joriy yilning 1-choragida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga qaratilgan, 2015 yil 24 aprelda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida ko'tarilgan masalalar ham diqqat markazida bo'ldi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, 2015 yilning I choragi davomida umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarida jami **234,1 mlrd. so'mlik** yo'l qurilish, ta'mirlash va saqlash ishlari bajarilgan bo'lib, bu o'tgan 2014 yilning shu davriga nisbatan **132%** ni tashkil etadi.

Investitsiya dasturiga muvofiq 2015 yilda **141,6 km** uzunlikdagi umumiy foydalanishda bo'lgan avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari belgilangan. Tuzilgan shartnoma va tasdiqlangan rejaga muvofiq I chorak yakunlari bo'yicha **5 km** uzunlikdagi avtomobil yo'llarini rekonstruktsiya qilish ishlari belgilangan bo'lib, amalda **10 km** uzunlikdagi avtomobil yo'llari rekonstruktsiya qilindi.

Xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida hamda shahar ko'chalarida "O'zavtoyol" kompaniyasi korxonalar va tashkilotlari tomonidan yo'llarni mukammal ta'mirlashda **18,7 mlrd. so'mlik** ishlar amalga oshirildi. **4,4 km** uzunlikdagi umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llari ta'mirlandi.

42654 km uzunlikdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha 2015 yilning I choragida **153,7 mlrd.so'mlik** mablag' o'zlashtirildi.

Yig'ilish davomida yangi ish o'rinlari yaratish, ijro intizomiga rioya qilish va bu boradagi hukumat topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish kabi dolzarb masalalar ham muhokama qilindi.

Boshqaruv yig'ilishi yakunida ko'rilgan masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.